
Ruboiyot

Bobo Tohir

BOBO TOHIR (980—1055)

Bobo Tohir (Uryon) - Eronning shimoliy-gʻarbidagi Hamadon shahrida tugʻilgan. U irfon sohibi, oʻz taʼbiri bilan aytganda, samovot ilmining donishmandi edi. Musiqadan yaxshigina xabardor boʻlib, oʻz taronalarini kuyga solib aytib yurgan.

«Uryon» soʻzining lugʻaviy maʼnosi «yalashgʻoch» boʻlib, shoir oʻziga bu taxallusni qoʻllar ekan, bizningcha, uning tasavvufiy mazmunini koʻzda tutgan: unga koʻra uryon - bu dunyodan fard boʻlishga, Olloh yoʻlida mujarrad boʻlishga ishora. Shoir nomiga qoʻshilgan «Bobo» unvoni ham uning tasavvuf pirlari jumlasidan boʻlganligini koʻrsatadi.

Bobo Tohir darveshtabiat kishi boʻlib, qalandarona hayot kechirgan. Afsonalardan birida aytilishicha, u odamlar bilan muloqotdan qochib, Alvand togʻining qorli choʻqqilarini makon tutgan. Bu narsa uning sheʼrlarida ham oʻzining yorqin ifodasini topgan. Shoirning goh orifona mushohada-mulohazalar, goh oshiqona zavqu shavq bilan yozilgan, rindona jazabayu shathiyotga omuxta, ishq oshuftalik, dardu hasratga yoʻgʻrilgan taronalari uning murakkab, notekis, ogʻir hayotidan, ruhiy poyonining cheksizligi-yu, qalb tebranishlarining rang-barangligidan, turfa holatiyu kayfiyatidan hikoya qiladi.

Bobo Tohirning ijodiy merosi uncha boy emas. Uning forsiyda taxminan 350 ta toʻrtligi maʼlum boʻlib, keyingi vaqtlarda dunyoning koʻpgina tillariga tarjima qilingan. Shoidan forsiyda yozilgan 4 gʻazal ham qolgan, deyishadi.

Tarixiy manbalar va tazkiralarda berilgan maʼlumotlarga koʻra, uning arab tilida tasavvuf masalalariga bagʻishlangan bir necha risolalari mavjud. Lekin hozirgi kunda uning «Kalamoti qassor» («Muxtasar soʻzlar») asari maʼlum. U Bobo Tohirning tasavvufiy aqidalari va axloqiy fikrlari majmuidan iborat. Shuningdek, uning arabcha ikki masnaviysi va bir necha qitʼalari bizgacha yetib kelgan. Ularning barchasida irfon aqidalari, soʻfiyona maʼrifatu haqiqat, zikru ibodat, vajdu ilhom va jazabayu muhabbat xususida soʻz boradi.

Bobo Tohirning nomini olamga yoygan uning dubaytiylari - toʻrtliklari hisoblanadi. U oʻzi mansub luriy lahjasida, xalqona usulda, sodda va ravon uslubda yozadi. Lekin shoir taronalaridagi tashbehu timsollar oʻzining goʻzal va ohorliligi, maʼnolari keng va teranligi, falsafiy fikru mulohazalar koʻlamli va haqqoniyligi bilan kishini hayratga soladi. Bu taronalar bejiz fors mumtoz soʻz sanʼatining oltin fondidan joy olmagan.

Shoir sheʼrlarida ilohiy va insoniy ishq ajib bir tarzda uygʻunlashib ketgan, ularni oʻzaro ajratib, mana bu - ilohiy, mana bu esa - insoniy ishq, deb boʻlmaydi. Shoirning komil ishonchiga koʻra ilohiy ishq insoniy ishqdan oʻsib chiqadi va, oʻz navbatida, insoniy ishq

yuksala borib, pirovard-natijada ilohiy ishqqa aylanadi. Bobo Tohir ijodida ham charxu falakdan, zamonadan, odamlardan shikoyat ohanglari, o'tkinchi dunyoni tanqid qilish motivlari uchraydi. Bu uning o'z davri bilan hamnafas shoir bo'lganligini tasdiqlaydi.

Bobo Tohir taronalari xalqona bo'lganligi uchun kitoblardan ko'ra xalq og'zida ko'proq tarqalgan va, asosan, xalq xotirasi orqali bizgacha yetib kelgan.

Shoir she'rlarini o'z ichiga olgan qo'lyozmalarning aksar XVIII-XIX asrlarga taalluqli ekanligi ham buning yorqin dalilidir. Eron, Xindiston, Pokiston, Afg'oniston, Tojikistonda ular, ayniqsa, mashhur va ko'pincha xalq og'zaki ijodi namunalari bilan qo'shib ketgan.

Bobo Tohir ruboiylari bugungi kunda o'zbek o'quvchilari tomonidan ham sevib mutolaa qilinmoqda. Shoir ijodidan namunalar Sh. Shomuhamedov va Abdulhakim Shar'iy Juzjoniylar tomonidan tarjima qilinib, nashr etilgan^[1]. Lekin bu tarjimalar barmoq (Juzjoniylarning 10 ta aruziy tarjimasidan tashqari) vaznida amalga oshirilgan bo'lib, biz ularni o'z an'anaviy vazni- hazaji musaddasi mahzuf (maqsur) vaznida tarjima qildik. Avvalgi tarjimalarda sodir etilgan ma'no buzilishlarini tuzatishga intildik. Ayni paytda, shoir mahorati-yu, dubaytiylarining badiiyatini ham imkon qadar qayta yaratishga harakat qildik.

RUBOIYLAR

1

*Kel, ey bulbul, chekaylik oh sahardan,
O'qi ishq darsini bu darbadardan.
Sen o'rtansang gul ishqida tunu kun,
Men uzmasman ko'ngilni labshakardan!*

2

*Mening dardim kabi dard yo'q jahonda,
Bu so'ngsiz dardu g'amdan dil figonda.
Xabardor bo'lsa kim dardu g'amimdan,
Qolar g'am ichra misli Nuh to'fonda.*

3

*Xudoyo, o'ngla bu bandang ishini,
O'zing yolg'iz kishilar hamnishini^[2].
Degaylar hech kimi Tohirni yo'qdir,
Xudoyim bor, netay o'zga kishini?!*

4

*Dilo, ko‘p behushu hayrona yurdim,
Bu nomus shishasshsh toshga urdim.
Na hojat nangu nomus^[3] — kimki oshiq,
Nangu nomusni ishqsizlarga berdim!*

5

*Ko‘rib jabru jafu charxu falakdan,
Arimas qayg‘u-g‘am bir dam yurakdan.
Samoni bo‘ylasa ohim tutuni,
Ko‘zim yoshi enar pastga etakdan.*

6

*Xudo olsin, iloyo, bu jahrnini!
Omon qo‘ymas, omon hech bitta jonni.
Tug‘ilmay bitgasi, ikkinchisi der:
Ajal oldi falon ibni falonni.*

7

*Muhabbatsiz ko‘ngilning so‘lgani soz!
Kishining dardi yo‘qmi — o‘lgani soz!
Bu ishq yo‘lida sobit bo‘lmagan tan
Kuyib otash aro kul bo‘lgani soz!*

8

*Amon, ey al-amon shum toleimdan!
Fig‘on, yuz ming fiton kuygan dilimdan!
Yurak-bag‘rim qon etdi charxi zolim,
Qachon qo‘l tortar u jabru zulmdan?!*

9

*G‘amim behaddu dardni yo‘q hisobi,
Iloj topmay oshar dil iztirobi.
Tushunmas bu nasihatgo‘y, Xudoyim,*

Menga bog'liq emas-ku ipgq azobi?!

10

*Kel, ey qo'ngil, kel, ey do'sti qadrdon,
Ul ishni kilmaki, so'nggi pushaymon.
Bu tushkun, qayg'uli kunlar-da o'tgay,
Surarmiz biz-da davronlar bearmon.*

11

*Kiyib bo'z to'nni, belga bog'ladim shol,
Ko'rib mag'rurligim qolsin falak lol.
Kezay boshdan-oyoq bu bahru barni^[4],
Ajabmas, kulsa baxt, o'nglansa ahvol.*

12

*Samo ilmin quloqqa ilmading sen,
Xarobot yo'lin orzu qilmading sen.
Azizlar qoshiga qandoq yetarsan?
Sabab: foyda-ziyoning bilmading sen!*

13

*Mening dardimga darmonim O'zingdan,
Visolim birla hijronim O'zingdan.
Agar qassob kelib terimni shilsa,
Sira ajralmagay jonim O'zingdan!*

14

*Yetar, bog'bon, bas ayla gul ekishni,
Yetar, qo'y gul uchun zahmat chekishni.
Agar gulning vafosi shu bo'larkan,
Gul o'rniga tikan ek — qil shu ishni!*

15

*Xudoyo, bir tani mehnatkanshm bor,
Xudoyo, bir dili hasratkashim bor.*

*Faqirlik^[5] shavqi, yolg'izlik g'amidan,
Xudoyo, dilda o'chmas otapshm bor.*

16

*Ko'zimning xonasi bo'lsin saroying,
Ikki ko'z orasida xoki poying,
Tovongapta, oyoq bosganda bilmay, —
Mijam sanchilmasin, der bu adoying.*

17

*Dilim bordir mening devonayu dang^[6],
Bilolmam — bormi menda nomusu nang?
Qutulsam bir kuni devonalikdan,
Urarman ul sanam etagiga chang.*

18

*Seningsiz dilda bo'lmas shoddik aslo,
Alam-g'amdan bo'lak ozodlik aslo.
Ko'ngil vayronasi yetmay qadaming,
Ilohi, ko'rmasin obodlik aslo!*

19

*Men ul rindmanki, nomimdir qalandar^[7],
Na joyim bor, na nonim bor, na bor zar.
Kun o'lsa, ko'ying uzra charx urarman,
Tun o'lsa, yostig'im — tosh, maysa — bistar^[8].*

20

*Voy ul kundan, agar qabrim bo'lur tang^[9],
To'kib ustimga tuproq, bossa xarsang.
Ilonlardan qocharga na oyoq bor,
Na qo'l — qilsam chumolilar bilan jang.*

21

Xudoyo, bo'ldim-ey bezor bu dildan,

Kecha-kunduz chekib ozor bu dildan.

Bu dilning dastidan dodga kelibman,

O'zing qutqarki, men bezor bu dildan!

22

Nechun ozurdaholsan^[10], ey dil, ey dil?

Mudom bandi xayolsan, ey dil, ey dil?

Utir bir go'shada, Haq shukrini qil,

Ki shoyad kom topolsang, ey dil, ey dil!

23

Ne baxt ul kun, agar qabrim bo'lur tang,

Menga yostiq giyohu g'ishtu xarsang.

Oyoqlar — qiblada, sahroda — jonim,

Tanim qurtu qumursqa-la qilur jang.

24

Xudo zikrini qilmaysan, bu ne hol?

Nafsdan ayru kelmaysan, bu ne hol?

Sening qadring malaklardan balanddir,

Sen o'z qadringni bilmaysan, bu ne hol?

25

Desam ham, demasam ham, ey Birubor,

Bilarsan dilda neki hojatim bor.

Agar xohla, ravo qil hojatimni,

Agar xohlamasang, yolg'iz zorim bor.

26

Bu dunyoda menga yo'q kom seningsiz,

Qo'linga tutmagayman jom seningsiz.

Tunu kun misli majnuntol titrab,

Menga yo'q bir nafas orom seningsiz.

27

*Qarab sahroga sahrongai ko 'rurman,
Qarab daryoga daryongni ko 'rurman.
Biyobon, tog 'u daryoga tikilsam —
Har yerda qaddi ra 'nongni ko 'rurman.*

28

*Tikanga tuyadek qildim qanoat,
Eshakdek lek yukim og 'ir nihoyat.
Yemishim kam, yukim ko 'p bo 'lsa-da, boz —
Uyatliman egam qoshida g 'oyat.*

29

*Ketay boshim olib endi qayoqqa?
Kechay Chin birla Mochindan yiroqqa!
Xabar yo 'llab, dedim siymindudoqqa^[11].
Uzoqlik istasang, ketdim uzoqqa.*

30

*Bilolmaymanki, sargardon nechun men?
Gahi giryon, gahi nolon nechun men?
Hamma bedardlarga boru darmon,
Bilolmaymanki, bedarmon nechun men?*

31

*G 'amingda xastaholman — nolimaymi?
Qanotsiz qush misolman — nolimaymi?
Eshitgan borki, der: nolangni kam qil,
Bu ishda bemajolman — nolimaymi?*

32

*Yuragim xastayu bag 'rimdir afgor^[12],
Go 'rimda ham chekarman nolayu zor.
So 'rarlar yo 'qmi, deb sho 'ring mabodo,*

Bosh-oyoq sho‘rman-u, sharrim^[13] yo‘q, ey yor!

33

G‘amu darding sira ketmas dilimdan,

G‘ofil el bu yurak-bag‘ri tilimdan.

Chamanda bag‘ri but bir bulbule yo‘q

Mening bu otashin qolu qilimdan^[14].

35

Fig‘onimdan kuyar bu ko‘m-ko‘k osmon,

Kuyar boshdan-oyoq bu charxi gardon^[15].

O‘zing tanla: berarsanmi murodim,

Yo bo‘lsin yeru ko‘k o‘t ichra yakson?!

36

Bu kun yashnab yotar bog‘u tog‘u dasht,

Bo‘ling xurram bu yerlarda surib gasht.

Juda cheksiz — ufklarga tutashgan

Ushal bog‘-u, o‘shal tog‘-u, o‘shal dasht.

37

Bu holimdan o‘zim-da bexabarman:

Uyimdamanmi yo qildim safar man?

Fig‘on dastingdan, ey ko‘ngli qattiq yor,

Bo‘larmanmi butun umr darbadar man?!

38

Fyuyun dil dastidan — komimcha yurmas,

Ishi ozoru g‘amdan o‘zga ermas.

Men o‘xshayman o‘shal qushgaki, doim —

Tushar domga, agarchi dona termas.

39

Deding, eshkak eshuvchiga o‘xsharman:

Ko‘zim daryosida eshkak esharman.

*Mudom qo'rquvdaman: g'arq bo'lsa kemam,
Bu cheksiz bahr aro qanday yasharman?..*

40

*Qilarman nola shomdan tongga dovur
Sening dastingdan, ey yori betadbir:
Gohida o'q yegan qoplon misoli,
Gohida sher kabi — bo'ynida zanjir.*

41

*Tun ersa, hajrida dilporadirman,
Kun ersa, dardida bechoradirman.
Yashar u o'z makonida xotirjam,
Men ersa, dahr aro ovoradirman.*

42

*Netay, gardu g'uborga to'lmish olam,
Meningdek barcha dillar limmo-lim g'am.
Men Alvand^[16] etagida sunbul ekdim,
Za'faron^[17] rangi rangimdek uning ham.*

43

*O'shal Qaqnus^[18] qushiman men-da, filhol^[19],
Jahonga o't tushar ursam paru bol^[20].
Devorga suvratim solsa musavvir,
Yoqar olamni butkul ushbu timsol.*

44

*Harom bo'lsin seningsiz lolayu gul,
Harom bo'lsin seningsiz bongi bulbul,
Harom bo'lsin agar sensiz o'tirsam
Va gulshan ichra bo'lsam mayga mashg'ul.*

45

Xush ul soatki, diydoring ko'rarman,

Go‘zal kokili mushkboring^[21] ko‘rarman.

Dilimda qolmagay bir zarra ham g‘am,

Qachonki, lolaruxsoring ko‘rarman.

46

Dilimning qa‘rida ming bir g‘amim bor,

Yoqar bag‘rimni hech o‘chmas olov — nor.

Bu kuygan dil saharda cheksa bir oh^[22],

Necha ming shayxu zohid bo‘lgay abgor.

47

Sening dayetingdan, erkam, kiyganim ko‘k,

Dilimda loladek dog‘i g‘aming ko‘p.

Agar ishqingda oh ursam o‘shal tong,

Hama o‘ylar bu Isrofil suri deb.

48

Men ul ummonki, zarfga^[23] jo bo‘libman,

Men ul nuqtaki, harfga jo bo‘libman.

Yashar har bir «alif»da bir «alifqad»,

«Alifqad»man, «alif»ga jo bo‘libman.

49

Bu dunyoda faqat bir orzuyim bor:

Menga yor bo‘lsa bas ul lolaruxsor.

Dilim dardini gar tog‘larga aytsam,

Bu tog‘larda giyoh unmaydi takror.

50

Kuyuk dillar, kelinglar, oh uraylik,

Beparvo bizga dilbar, oh uraylik.

Boraylik bulbuli shaydo qoshiga,

U oh urmasa, bizlar oh uraylik!

51

*Ko 'ngil rohat bilar xoru xashakni,
To 'gar gar dovrug 'i charxu falakni.
Agar jism arg 'umog 'i chiqsa qo 'ldan,
Yuking yengil bo 'lar, buzma pinakni.*

52

*Tunim yaldo tunidan ham qorong 'u,
Bu dardimdan batar dard bormi, yohu?
Hama dardning bo 'lar darmoni oxir,
Mening dardim esa darmondan ayru.*

53

*Ajab baxtiqaroman — manglayim sho 'r,
Hayot — nursiz, ko 'ngil misli qaro go 'r.
Muhabbat ko 'yida bo 'ldim balokash,
Bu dil dastida qonman — bir kelib ko 'r.*

54

*Bo 'libman yor ko 'yida zoru hayron,
Kecha-kunduz ko 'zimdan tomchilar qon.
Agar dil rozini kim elga ochsa,
U bir devonadir yoxud parishon.*

55

*Diling topgaymi holimdan xabar hech?
Ko 'rarmi marhamat qonli jigar hech?
Jigari sen kabi qon bo 'lmaganlar
Jigari qoiliga qilmas nazar hech.*

56

*Seningsiz, ey sanam, yo 'q menda darmon,
Ko 'zim yoshli, jigar-bag 'rim erur qon.
U qun bo 'yningni quchgan ushbu qo 'llar*

Bu kun boshimning ustida parishon.

57

Agar mastu xumormiz — bergil iymon,

Agarda beqarormiz — bergil iymon.

Majusiy, butparast yoki musulmon,

Necha millatki bormiz — bergil iymon.

58

Seni deb bog'ladim belimga zunnor^[24],

Juhudu butparastman, kulsam, ey yor.

Ko'rib ahdu vafoyingni, dilorom,

Bo'lay ahdu vafo kimdan umidvor?

59

Ishqingda o't aro qoldi vujudim,

Bu o'tda kuydi-ey budu nabudim^[25].

Oyoq qo'ysa iting qo'zga, g'uborin

Mijam-la tozalab qo'ymoqchi edim.

60

Na mulki bor-u, na dunyoga mayli,

Ajoyib xalq erur ushshoq xayli.

Kecha-qunduz sabrni aylagay kasb,

Go'zallarning yuzi yodi tufayli.

61

Pushaymonmiz, pushaymonmiz, pushaymon,

Pushaymonlikda olislaydi karvon.

Vafo qilmasa-da hech kimga dunyo,

Mudom mshshatini tortadi inson.

62

Sabo keltirsa ul kokul hidini,

Ketar bosib gulu sunbul hidini.

Xayolingni quchoqlab yotsam tunda,
To 'shagim tarqatar tong gul hidini.

63

Xudo haqqiki, jononim o 'zingsan,
Arab sultoni^[26], kel, jonim o 'zingsan.
Bilolmam, kim o 'zim, qanday maqomim?
Bilarman, ammo darmonim o 'zingsan.

64

Bu savdoning tugari ko 'rinmas,
Bu g'amning haddi-poyoni ko 'rinmas.
Agar shubha qilarsan, kel, o 'zing ko 'r:
Bu ne darddirki, darmoni ko 'rinmas.

65

Dilim bor — bir dam u xurram bo 'lolmas,
G'amim bor — hech qachon ham kam bo 'lolmas.
Jahon zebolaridan hujjatim bor:
Vafosiz yor menga hamdam bo 'lolmas.

66

Qiyomat kunida qozi Xudodir,
Sirot qo 'prigida ming mojarodir.
Utarlar birma-bir yoshu qarilar,
Kutib navbat mening ko 'nglim qarodir.

67

G'amingda qo 'zlarim doim to 'kar yosh,
To 'shakdir menga tuproq, yostig'im — tosh.
Seni jondan sevarman — shu gunohim,
Shumi ishqqa mukofot, ey qalamqosh?!

68

Bu qanday kecha — hammayoq qorong'u:

Yeru osmonu so‘lu sog‘ qorong‘u.

Ko‘ray choryor bilan sakkiz imomni,

Dilimni bosmasin mutloq qorong‘u.

69

Jahonda men kabi kuygan ko‘ngil yo‘q,

Meningdek dardu so‘zu g‘amga qul yo‘q.

Nechuk bog‘lay bu yosh daryosi yo‘lin?

Uning manbai dil — to‘sguvchi qo‘l yo‘q!

70

Mening ko‘nglimdagi g‘am behisobdir,

Xudo bilgay: ko‘ngil qushi kabobdir.

Ulug‘larman sening qo‘lingni, jallod,

Agar qonimni to‘ksang, bu savobdir.

71

Bu dardimni birovga so‘ylayolmam,

O‘zinga o‘zgani yor aylayolmam.

Menga derlarki, o‘z yoringni tark et,

Bu bir yorki, uni tark aylayolmam.

72

Ikki ko‘zimni aylab zoru giryon,

Olib aqlimni, etding lolu hayron.

Agar Majnuni holin so‘rsa Layli,

Uni sahro tomon qilding nigoron.

73

Bilolmayman: meni kim qildi uryon?

O‘zim jallodman-u, kim qildi bejon?

Pichoq ber, to yurakni pora aylay,

Ko‘ray ne bo‘lganin ishq dastida jon?

74

Tilarman dil u qoshi xamga arzir,
Agar arzimasa, motamga arzir.
G‘amingdan har kishi gar yoqa yirtsa,
Har yirtiq yoqa bir olamga arzir!

75

Zaminda bir kishi yo‘q menga o‘xshash,
Bu dinda bir kishi yo‘q menga o‘xshash.
Ishonmayman o‘zimdekklarni ko‘rsam:
Naxrt, bu menga o‘xshash, menga o‘xshash?!

76

Kim oshiq bo‘lsa, u jondan hayiqmas,
Oshiq kundayu zindondan hayiqmas.
Bo‘lar oshiq dili och bo‘ri yanglig‘,
Bo‘ri cho‘ponu gavrondan hayiqmas.

77

Uzun tunlar mening jonim kuyar, oh,
Giribondan^[27] to domonim^[28] kuyar, oh.
O‘shal sevimli yor yodida jonim —
Mudom qo‘rquvda: iymonim quyar, oh.

78

Sening ishqingda bitdi sabru bardosh,
Ko‘zim yoshi etar pinhon sirim fosh.
Bu oshiq ko‘ngli misli ho‘l yog‘ochdir —
Kuyar bir uchi, bir uchi to‘kar yosh.

79

Seningsiz bo‘lmagay shodlik bu jonda,
Seni ko‘rganda g‘am tarqar shu onda.
Dilim dardini qismat etsa barcha,

Biror beg'am kishi qolmas jahonda.

80

Dilimda g'am niholi otdi resha^[29],

Xudoni yod etib, yig'lay hamisha.

Azizlar, bir-biringizni avaylang,

Ajal — tosh bo'lsa, odam misli shisha.

81

Chekar bulbul sahar chog'ida faryod,

Qilib gulning nurafshon chehrasin yod.

Falak, ohim o'tidan ehtiyot bo'l,

Kuyuk dillarning ohi misli girdbod.

82

To'karman o'tli yoshlar misli ul sham,

Ohimdan o't olar yetti falak ham.

Ko'zimdan qonli yosh to'kkayman andoq —

Qolar boshdan-oyoq suv ichra olam.

83

Azizlar, shod bo'ling, avji bahordir,

Chamanlar yashnagan, cho'l lolazordir.

Bu mavsumning g'animat har bir oni,

Biling, dunyoi dun^[30] bee'tibordir.

84

Boshimda ishqining shavq-ishtiyog'i,

Dilimga o't solar otash yonog'i.

O'zi Ka'bayu but, qibla — to'libdir

Zuhuriga jahonning hammayog'i.

85

Go'zallar qonli dil istar — shu ma'qul,

Dilo, qon bo'l — ularga ushbu ma'qul.

*Birov kufr-u birov dinga xaridor,
Birovga — bol, birovga og‘u ma‘qul.*

86

*Agar yo‘lbarsu shersan — bo‘lma ming zo‘r,
Borar joying alal-oxir qaro go‘r.
Tanang go‘r ichra to‘kin sufra^[31] bo‘lgay,
To‘kar atrofida qurtu ilon qo‘r.*

87

*Agarda bo‘lsa qiyma-qiyma jonim,
Agar otashda yonsa ustuxonim,
Agar tirnoq tagiga tiqsalar tuz,
Dil uzmasman o‘zingdan, mehribonim!*

88

*Agarda toj boshingda — oqibat hech!
Agarda taxt qoshingda — oqibat hech!
Sulaymon mulki bo‘lsa-da nasibing,
Ajal gar yonboshingda — oqibat hech!*

89

*Quyosh yuzing quyoshidan iboda,
Qoshing qoshida oy madhu sanoda.
Shahar, sahroyu tog‘da kimni ko‘rmay,
Dilida mehring-u, tili duoda.*

90

*Agar bu so‘zni bilmaslar — na xush bu,
Na yozolsa, na o‘qiy olsa, yohu!
Biyobonga tutib yuz misli Majnun,
Bu tog‘larga chiqib, boqsinar ohu.*

91

Tilaymanki, sa‘yi yor aylasa dil,

*Bu baxtimga kuyib, zor aylasa dil.
Kezib el men kabi izlamasang yor,
Jonu dildan seni yor aylasa dil.*

92

*Qaro tunu biyobonparvar o'lsa,
Bu sahro xoru xasga kishvar^[32] o'lsa;
Yuki oz kishining bo'lgay ishi soz,
Bu yo'lda gar zulumot rahbar o'lsa.*

93

*Jahonning bor g'ami bizga ravodir,
Bu dardimizga rohat kimiyodir^[33].
Yetar dardiga darmon har kishining,
Dilimiz dardiga darmon balodir^[34].*

94

*Ulug'lar qabridan unmas sira gul,
Agar unsa-da, sochmas rangi hid ul.
Beobro'yilgu badnomlikdan o'zga
O'zi o'sgan giyoh bermaydi hosil.*

95

*Bu tog'larning havosi mangu ermas!
Bu bog'larning safosi mangu ermas!
Kezarman elma-elu bong urarman:
Go'zallarning vafosi mangu ermas!*

96

*Agar nomehribonim mehribondir,
Ne bois ko'zlarimdan qon ravondir?
Agar dilbar mening dildorim o'lsa,
Nega jismimda na dil bor, na jondir?*

97

*Dilimni g'am o'ziga xona tutmish,
Boyqushdek vayronni oshyona tutmish.
Falak miskin diliga o'xshagaydir,
Bu g'am siynasini sarxona^[35] tutmish.*

98

*Meningdek bu falak bechora bo'lsin!
Botib dil qoniga qop-qora bo'lsin!
Agar ko'rsa meni bir lahza beg'am,
Bu g'amning dastidan ovvora bo'lsin!*

99

*G'aming dastida dil zeru zabardir^[36],
Jigar qoni ko'zimda sarbasardir^[37].
Kishikim, yori nozanin agardir,
Kuyib joni, dili to'la kadardir^[38].*

100

*Nima dey, neki desam — senga ma'lum,
Figonim ko'p yoki kam — senga ma'lum.
Agar topsam kirib daryoga gavhar,
Har ul gavharki ko'rsam — senga ma'lum.*

101

*Bu nozik dilni bir shisha bilurman,
Agar oh cheksam, andisha qilurman.
Ajab yo'q ko'zlarimdan qonlar oqsa,
Jigarda otmish ul resha — bilurman.*

102

*Bu yal-yal lolazorni bil g'animat!
Bu fasli navbahorni bil g'animat!
Jahon ne'mati yor vasliga yetmas,*

Visoli nozli yorni bil g'animat!

103

*Misoli sher edim — qo'rquv begona,
Ajal qasd ayladi nogoh bu jona.
Yengib dahshatli sherlarni, turibman —
O'linga topmayin chora, bahona.*

104

*Senga har kim yaqin bo'lsa — zulmdir,
Uzoqlikdan qo'zida yoshi limdir.
Agar bir bora kiprigingni ko'rsam,
Yurak-bag'rim tilim uzra tilimdir.*

105

*Meni devonayu shaydo qilibsana,
Meni sargashtayu rasvo qilibsana.
Bilolmayman, dilim qaydan topar joy,
Bilarman unga O'zing jo(y) qilibsana.*

106

*Kel, ey dildor, yuzing bog'u bahorim,
Sening yoding uzun tunlarda yorim.
Xudo bilgay — bu o'tkinchi jahonda
Yo'q ishqingdan bo'lak hech koru borim^[39].*

107

*Kel, ey jononki, diydoring ko'ray men,
Yuzingdan gulu sunbulni so'ray men.
Shu erdi ishtiyog'im oyu yillar:
Biror lahza yoningda o'ltiray men.*

108

*Seningsiz misli gulxan ushbu gulshan,
Vujudim ishq o'tiga ayla maskan.*

*Suyak ham yonsin unda — men-da bir sham',
Bu sham'ga ber rivoj ishq o'ti birlan.*

109

*Bu ovvora boshim somonni^[40] bilmas,
Bu qon bo'lgan dilim darmonni bilmas.
O'shal kofirga ko'nglimni beribman,
Bo'lak mazqabga dil iymonni bilmas.*

110

*Azizlar, ayriliqning dardi dushvor,
Ko'zimda qolmadi nur-shu'la zinhor.
Na bor do'st to'kkali dardim, na qamdami,
G'amu dard dog'iga bo'lgach giriftor.*

111

*Dili shodlar dili zordan xabarsiz,
Sog'inson dardi bemordan xabarsiz.
Yo'q aybing bunda qech — asli-azal shu:
Kim erkindir — giriftordan xabarsiz.*

112

*Musalsal^[41] sochining qar tobida makr,
Xumor, mast ko'zlari purxobida^[42] makr.
Bu quldan ayrilishni istamassan,
Va lekin bu zamon shitobida makr.*

113

*Dilimda yor yuzining ishtiyog'i,
Sarosar^[43] ko'ksim ichra ishq dog'i.
Ko'rib men lolalarni shod bo'lurman,
Ularning qo'ksi ham shu dog'o'chog'i.*

114

Dilimda sendan o'zga dilbarim yo'q,

Bu ko'ksim ichra o'zga gavqarim yo'q.
Mening qo'nglim kuyukdir, meqrinq — otash,
Kel, ey, o't olmagay o't ko'rmagan cho'g'.

115

G'amingga muhtalolar shodu xursand,
Oyog'ingga qilib boshlarni payvand.
Mening ko'nglimda ming hoyu havas bor,
Ular ko'ngli sening mehring bilan band.

116

Mening yorimni qech bir yorligi yo'q,
G'amu dardim ko'rib, g'amxorligi yo'q.
Xabar kelgay yoring noz uyquda deb,
Bu ne uyqudir — qech bedorligi yo'q?!

117

Yotar joyimni tunda bo'ston etdi,
Uzib gullarni, uyqum vayron etdi.
Sevishimni bilib gullarni bog'bon,
Tikanlarni ularga posbon etdi.

118

Xudo xoqlamagan ishlarni qilmang,
Qilib, dunyoni ko'zga aylamang tang.
Qiyomatda o'qilsa noma tokim,
Eshitganda bu nomani uyal mang.

119

Birov dard-u, birovlar darmon istar,
Birov vasl-u, birovlar hijron istar.
Bularning ichida menga o'shal xush —
Ularning qay birini jonon istar.

120

*Mening dodimga hech bir zot yetolmas,
Xabar holimdan ul yorga etolmas.
Dilimdan bor go‘zallar bir bo‘lib ham
Sening yodingni o‘g‘irlab ketolmas.*

121

*Men ul lochin — bilarman ho‘b yovimni,
Nihon tutgum tog‘ ichra o‘tovimni.
Ucharman o‘z qanotim birla tog‘da,
Tutarman o‘z qo‘lim birla ovimni.*

122

*Dilim tor — tobi yo‘q sobir bo‘lishga,
Uning dastidan roziman o‘lishga.
Yuzingdan sharm etib, kirdim hijobga,
Qani yo‘l — senga arzu hol qilishga?*

123

*Bekor qolsang, mazorlarni kezib chiq
Va qil boyu faqir holini tahqiq:
Na boy olmish kafandan ortig‘-u, na
Faqir qolmish kafansiz usti ochiq.*

124

*Dilim doim xaridori muhabbat,
Qizir undan bu bozori muhabbat.
Libos tikdim dilim qaddiga moslab,
Ipi — mehnat uning, tori — muhabbat.*

125

*Seningsiz bosh agar qo‘ysam bolishga,
Suyaklar nay kabi kirgay nolishga.
Yosh o‘rniga g‘amingda ko‘zlarimdan*

Olov uchqunlari boshlar yog‘ishga.

126

Bahor kelganda har shoxda bitar gul,

Urar bog‘larda bong oshufta bulbul.

Bilarman kezmasam-da bahru barni:

Topilmas dilki, mendan-da kuyuk ul!

127

Qali kuymay, qidirma dardga darmon,

Xali o‘lmay, o‘zingni etma giryon.

Kuyuk ko‘nglimni gul-lolaga topshir,

Tobi yo‘q, qilma g‘am o‘qiga qalqon.

128

Falak, bilmasmisankim, mustamandman^[44],

Menga jabr etma ko‘p — men koni dardman.

Ko‘rarsan aylanib bir doirada,

Bu gardishga bir ipdek men-da bandman.

129

Xalos ayla meni xasta ko‘ngildan,

Kasal boqish sira kelmaydi qo‘ldan.

Nega la‘li labing qonimga tashna,

O‘zi soqiy-ku, ne istar bu quldan?

130

Meni deb bag‘ritosh bu zebo kuymas,

Ajabmas, o‘t aro tosh aslo kuymas.

Kuyarman o‘t tutashguncha dilishta,

Yog‘och ho‘l bo‘lsa, o‘tda tanho kuymas.

131

Dilim dastingda ko‘p nolonu nolon,

Ezilmish bag‘rim-u, bo‘lmish jigar qon.

*Menga sen necha minglab va'da berding,
Bu va'dalarga yo'qdir haddu poyon.*

132

*Seningsiz talvasam bordir, kelib ko'r,
Zahar kosamda bisyordir, kelib ko'r.
O'zim — qon, yig'i — soqiy, nola — mutrib^[45],
Shu uch do'st men bilan yordir, kelib ko'r.*

133

*Dilimni g'am o'tida yoqsa koshki,
Jonimda ishq olovini choqsa koshki.
Gireh^[46] solmay kafanlarning ipiga,
Gadoyu shohga bir xil boqsa koshki.*

134

*Bu ishq o'tini et afzun, Xudovand,
Bu dilni dardida et zoru dardmand.
Bu darddan bir nafas forig' o'tirsam,
Bu jonim ayla parkandu parkand^[47].*

135

*Kelib holimni bir ko'rgil, sumanbar^[48],
Biror tun vaslishta ayla muyassar.
Agar sen boshga gul taqsang, urarman —
Quruq panjamni boshga men muqarrar.*

136

*Bu dil holi nechuk sendan uzoqda?
Xabar yo'llay birov bo'lsa so'roqda.
Yuzing ko'rsat etib rahm jon chiqar choq,
O'lib ketmay qilib armon firoqda.*

137

Ko'zimga yostig'im sensiz ilondir,

Bu qunlar tun kabi tiyra^[49], ayondir.

Agar gul sayriga chiqsam seningsiz,

Guliston bosh-oyoq xuddi tikondir.

138

Baland tog' uzra ma'yus o'ltirarman,

Agar ko'z ochsa lola, men terarman.

Agar shu lolaki, bilmas vafoni,

Nechuk bevafo yor orzu qilarman?

139

Kuyuk dillar, keling, to oh uraylik,

Kel, ey parvona, oshno, oh uraylik,

U yor husn ichra tanho, oh uraylik,

Mudom bizga beparvo, oh uraylik.

140

Falak, mahv aylading oxir asosim,

Bo'yab boshdan-oyoq ko'kka libosim.

Agar jonimni olmoq istamassan,

Qo'porma ushbu olamdan asosim.

141

Ayo, do'stlar, ajab mayxo'r erurman,

Yoridan ayru, baxti sho'r erurman.

Bu otash meni qizdirmas, nechun, bas,

G'amu mehnat^[50] dudidan ko'r erurman.

142

Iloho, dushmaning xor, xasta bo'lsin!

Uchib o'qqa, hayoti sham'i so'lsin!

Agar ketsam so'rab holini tunda,

Sahar kelsam, ko'zi tuproqqa to'lsin!

143

*Dilim zor-u, dilim zor-u, dilim zor,
Tabib chorlang, davo topsin bu bemor.
Agar ko'rsa bu ahvolimni bir bor,
Tabib dardimga izlar chora nochor.*

144

*Na har kuygan ko'ngil aylaydi nola,
Na har yoqimli yuz monandi lola.
Bilarmi kuymagan kuyganning holin?
Olovdan hech qachon yoqqanmi jola?*

145

*Qorong'u tunu toshloq yo'lu men — mast,
Qadah tushdi-yu qo'ldan, sinmadi, bas.
Xudoyimning o'zi asradi, yo'qsa,
Yerga tushgan qadah sinmasdan qolmas.*

146

*Dilim dilbar esa, dilbar qayonda?
Bu dilbar dil esa, dil qaysi yonda?
Ko'rarman dilbaru dilni omuxta,
Bilolmam: dil qani? Dilbar qayonda?*

147

*Yonimdan ketding-u, tark etdi dil ham,
Boshimda yo'q o'zingdan o'zga bir g'am.
Visolingdan bo'lak ikki jahonda
Umidim yo'q mening, ey husni olam!*

148

*G'amu dardimni attordan so'rab bil,
Tun ta'rifini bemordan so'rab bil.
Mudom holim so'rar jumla xaloyiq,*

Seviklim, sen-da kel, bir bor so‘rab bil!

149

Ko‘rib so‘rdim tikan qo‘ynida gulni:

«Qachon vasliga yetkazgay ko‘ngilni?»

Dedi bog‘bonki: «Ma‘zur tut bu qulni,

Berar do‘stlik daraxti kech hosilni».

150

Guli sunbul poyida soyaparvar,

Niholi qomati bir naxli navbar^[51].

O‘shal suriy^[52] sanam ishqida tinmay

Chekarman andalibdek o‘tlig‘ ohlar.

151

Men ovchi qush edim — otlandim ovga,

Yedim o‘q duch kelib yov qo‘ygan govga.

Buloqlar bo‘yida g‘ofil yashama,

Hamisha o‘q bo‘lar g‘ofilga sovg‘a.

152

Menga tog‘ lolasi o‘zingsan, erkam,

Ariq bo‘yidagi binafsha, gul ham.

Bu tog‘lar lolasi bir haftalikdir,

Biroq sen bir umrlik yoru hamdam.

153

Keling, kuygan ko‘ngillar, biz bo‘lib bir,

Ochib dil, o‘zaro sirlashsak arzir.

G‘amimiz o‘lchayik olib tarozi:

G‘ami ko‘p bo‘lsa kimni — vazni og‘ir.

154

Men ul kuygan ko‘ngil, chekmaymi nola?

Emas dardim yengil, chekmaymi nola?

*Guli yonida-yu, bulbul chekar oh,
Uzoqda bizni gul, chekmaymi nola?*

155

*Men Alvand etagida gullar ekdim,
Suv o 'rniga ko 'zim yoshini to 'kdim.
Ular gullab, hidi menga kelar chog'
Olib ketdi shamol... men nola chekdim.*

156

*Agar kelsang, quvonch sozin chalarman,
Agarda kelmasang, g 'amda qolarman.
Kel, ey, ko 'nglimga solgil barcha darding,
Chidarman, yo yonarman, yo o 'larman.*

157

*Yana tortib etak ketding-ku, erkam,
Bu ishdan zarra afsus chekmading ham.
Tutay men ham biror dilbar etagin,
Ajabmas, ishlarim o 'nglansa kam-kam.*

158

*Kel, o 'ylaylik o 'zimizni biror on,
Yetib bormas u yorga ohu afg 'on.
Bu bizning qayg 'ularga bormi tobing?
Berolmas bunga tob Somu^[53] Narimon^[54].*

159

*Boray kimga — topilmas do 'stu oshno?
Boray kimga — g 'ariblik yori tanho?
Kellarman senga gar quvsa meni el,
Boray kimga — agar sen quvsang ammo?*

160

Ko 'yingda to 'kmadim yosh, ey diloru,

Visoling va'dasin eshitmadim to.
Vafo tuxmini ekdim dilga — bermas
G'amu xorlikdan o'zga hosil ammo.

161

Musulmonlar, dilimda uch g'amim bor:
G'ariblik va asirlik, dardi dildor.
G'ariblik va asirlik ishi oson,
Faqat dildorni dardi menga dushvor.

162

Men — ovchi qush erurman, ko'ksi — egov,
Baland tog'larda yasharman qilib ov.
Egovda tezlashar odatda tig'ni,
Men ul tig'man — Haq o'zi qilmish egov.

163

Mening oshiq dilim sog'lom emasdir,
Nasihat tinglamoqqa rom emasdir.
Olib ketmas agar yellarga bersam,
Olovga tashlasam, badnom emasdir.

164

G'aming muft^[55] boyligu ehsondan avlo,
Visoling umri jovidondan^[56] avlo.
Ko'yingning bir siqim tuprog'i, rosti,
Xudo shohid, yeru osmondan avlo!

165

Ko'zim tiksang-da, senga intilarman,
Tanim yoqsang-da, ko'yingga kelarman.
Agar bog'imga eltsang gul terishga,
Senga hamrangu hambo'y gul tilarman.

166

*Kel, ey, to bir nafas yuzing ko 'ray men,
Yuzingdan gulu sunbullar teray men.
Kel, ey, qoshimda o 'ltir oyu yillar,
Seni toki to 'yib-to 'yib ko 'ray men!*

167

*O 'shal bexonumon^[57] — men o 'zimman!
O 'shal besaru somon^[58] — men o 'zimman!
Uzun tunlarda zor qugguchi kunni,
Kuni tunday zimiston — men o 'zimman!*

168

*Sening joying guliston, yori jonim,
Mening gulxan yonida kul makonim.
Agar gulxanmi, gulshan yoki cho 'lda
Ko 'zim o 'zgani ko 'rmas, mehribonim.*

169

*Uzun tunlar sanab yulduz yotarman,
Tun yetsa yarmiga seni kutarman.
Yarim tundan keyin ham kelmasang gar,
Ko 'zimdan yosh daryosini to 'karman...*

170

*Rubobimga ikki zulfing bo 'lar tor,
Ne istaysan — holim shundoq ham abgor.
Sening menga sira yorlik joying yo 'q,
Nega har tun kirarsan tushga, dildor?*

171

*Qilaylik, kel, bu ko 'z yoshini Jayhun,
Bo 'laylik ikkimiz Layliyu Majnun.
Fariduni^[59] aziz tark etdi bizni,*

Yarataylik, kel, ey, yangi Faridun!

172

Jigarim ezdi dard — ovvora qilma,

Visoldan etma fard — ovvora qilma.

Malomat qilma kelmas deb ko'yimga,

Kelarman rangi zard — ovvora qilma.

173

Nechuksan, dil? Nechun sen muncha mahzun?

Mudom xunsan, mudom xunsan, mudom xun.

Go'zal Laylining ishqida hamisha

Yurarsan misli Majnun, misli Majnun.

174

Yusufdek gar meni sudrashsa zindon,

To'kib yosh, aylamasman nola-afyun.

Raqib bo'lsa-da menga yuzta bog'bon,

Kelarman har qachon bog'ingga xandon.

175

Sahar gul qoshiga kelganda bulbul,

Ko'zim yoshi tomar etakka gul-gul.

Borib gul yoniga men cheksam afg'on,

Tushar barcha kuyuk dillarga g'ul-g'ul^[60].

176

Dilimdan tashqarida nola yo'qdir,

Mijamdan o'zga yerda jola yo'qdir.

Biror tun yo'qki, seni ko'rmasam tush,

Mening baxtinga ko'zda lola yo'qdir.

177

Falak, bedod etarsan nega har dam?

Gulim-ku bo'lmading, bo'lma tikan ham.

*Agar dardimni yengil qilmagaysan,
Yana dard ustiga dard aylama zam^[61].*

178

*Turarman ko'cha boshida kutib yor,
Bo'larman deb visoliga saeovor.
Mening kunim agar boshishta tushsa,
Bilarsan bevafo san qancha, dildor!*

179

*Magar sheru palangsan^[62], ey dil, ey dil,
Qilarsan men-la jang san, ey dil, ey dil.
Agar topsam iloj qoning to'kardim,
Ko'rardim qaysi rangsan, ey dil, ey dil!*

180

*Ayo, dard, bir o'zing kelsang, na bo'lg'ay?
Ko'ngilga g'amni oz solsang, na bo'lg'ay?
Boshim uzra habibmi bu, tabib yo?
Ulardan gar biri bo'lsang, na bo'lg'ay?*

181

*Yuzi uzra musalsal zulflari bor,
Gulu sunbul qo'shilgan kabi xummor.
Qilib zulfini(ng) har torin parishon,
Osar har biriga bir dilni dildor.*

182

*Meningdek topmagung bag'ri tilimni,
Chiqar o't ohidan oh ura kimni?
Muhabbat o'tida andoq yonarman,
Kuyib bitsam-da qo'rmaysan kulimni.*

183

Ayo, bu Isfahon, ayting, ne ma'vo?

*Kimni do'st aylasam, bo'ldi bevafo.
Sherozdan tashqari chiqsam butunlay,
Toparman har bir manzilda yuz oshno.*

184

*Meningdek keksani topmas xaloyiq,
Mening dardim emas hech dilga loyiq.
Uzun tunlarda sham'dan^[63] o'zga yor yo'q,
Bu kuygan dilga kuygan dil muvofiq.*

185

*Jahonda necha minglab lolaki^[64] bor,
Yig'ib menga berishsa, ushbu dushvor.
Tilarman lolani xushbo'yu xushro'y,
Jamiki loladan bo'lsin u dildor.*

186

*Quyoshdek orazing bo'lsin charoyun,
Bu ishqing o'ti bag'rim aylasin qon.
Bilarsanmi, nega holing qarodir?
Quyoshga kim yaqin — quygay bearmon.*

187

*Sira mardlikni etmas pesh^[65] nomard,
Sira chekmas figonu nola bedard.
Haqiqat so'zini aytar Faridun:
Shu'la sochmas agar tandir esa sard!*

188

*Yuzing bo'lsin quyoshdan-da charogon,
Ko'yingda qiyma-qiyma bu kuyuq jon.
Qaro xoling yoqar bag'rimni cho'g'dek,
Shu cho'g' mendan kuyukroq bo'lsin, ey jon!*

189

*Bu yuzlarni hayodan qoplamish ter,
Bu kiprik o'qlari to'la zahardir.
Zanaxdon^[66] chohiga Horut dilini
Osuvi yordagi sehr-jodulardir.*

190

*Yuzing mehri dilimdan ketmagay hech,
Avom bu ishqni anglab yetmagay hech.
Chin oshiq bu muhabbat otashini
Xaloyiq ichra doyeton etmagay hech.*

191

*Agar bilsang, g'amimga ayla chora:
Do'narmi kunga tunlar bora-bora?
Gahi derman: sira otarmikan tong?
Gahi dermanki: tong otmasa zora^[67]...*

192

*Kecha-kunduz yurar joyim xiyobon,
Kecha-kunduz ko'zimning yoshi to'fon.
Na og'rir bir yerim, na bor isitmam,
Kecha-kunduz nega men zoru nolon?*

193

*Ayo, dilbar, dilu jonim o'zingsan,
Butun paydoyu pinhonim o'zingsan.
Bilolmayman: bu dardim boisi kim?
Bilarman ammo darmonim o'zingsan.*

194

*Sochingning hidiga maftunman, ey gul,
Yuzingning hajrida dilxunman, ey gul.
Sening ishqingda men zor-beqarorman,*

Sen misli Layli, men — Majnunman, ey gul!

195

*Bu ko 'zlar may to 'la ikki piyola,
Bu sochlar Ray xiroji bemalol-a.
Bugun-erta deya va 'da berarsan,
Bo 'lar ertang qachon, ey yuzi lola?*

196

*Men ul sham 'manki, to 'kkan yoshi qaynoq,
To 'kar yosh shundayin kim cheksa qiynoq.
Kuyib tun bo 'yi, yig 'larman butun kun,
Tunim shundoq o 'tar, kunlar-da shundoq!*

197

*Bog 'u rog 'lar tarafda lola o 'sgay,
Bu kipriklarni qonli jola to 'sgay.
Xurosonga agar yo 'l olsa karvon,
Dilimni orzuyi Bangola bosgay...*

198

*G 'ariblik meni qattiq dilgir etdi,
Falak bo 'ynimga g 'amdan zanjir etdi.
Falak, bo 'ynimdan ol bu zanjiringni,
G 'ariblik shundog 'am ko 'p ta 'sir etdi...*

199

*Dilim sensiz hamisha beqarordir,
Menga ozor berish senga shiordir.
Boshimga mushtlagum badxulq boladek,
Firoqingda menga shu ixtiyordir.*

200

*Baloning ramzidir bu qaddi zebo,
Jununning manbai bu dardu savdo.*

Agar rasmingni chizsam — bor gumonim:

Qilarman tunu kun pinhon tamosho.

201

Dilim bir qushga o'xshar — beparu bol,

Va yo qumda o'tirgan kema, alhol.

Siniq soz hech sado bermas, nechun, bas,

Degaylar, Tohiro, qo'lingga soz ol!

202

Muqarrablar seni har tun ko'rarlar,

Yoningda o'ltirib, suhbat qurarlar.

O'zim ko'rolmasam-da, ko'rsam erdi

U zotlarni — seni har tun ko'rarlar.

203

Bashar ko'rganmi sendek dilraboni?

Seningdek ko'ngli qattiq bevafoni?

Muhabbat rasmini ko'rguzib avval,

Keyin qizdirding bozori jafoni.

204

Sening dardingda yo'q kunlar qarorim,

Qaritgay kechalarni ohu zorim.

Kuyar holimga har do'stu begona,

Faqat sen bexabar, beparvo yorim!

205

O'shal dilbarni(ng) qo'zi masti bordir,

Meningdek ming oshiqqa qasdi bordir.

Oshiqlar o'rtasida ul sanamning

Bu she'rimdek balandu pasti bordir.

206

Oshiq ko'ngliga bir paygom yetarli,

Xumoroludaga^[68] bir jom yetarli.
Menga ko 'zingning^[69] sarxushligi basdir,
Qanoatgarga bir bodom^[70] yetarli.

207

Boshimda sochining^[71] savdosi bordir,
Dilimga yuzining^[72] sevgisi yordir.
Agar mayl etsa yangi oyga ko 'zim,
Biling, qayrilma qoshlarga^[73] xumordir^[74].

208

Bu jonimga solib o 't, sochi sunbul,
Vujudim aylamishsan bir hovuch kul.
Kesishsa dildagi ishqing niholin,
Chiqargay har tarafga shoxlarin ul.

209

Meningdek beqaror parvona yo 'qdir,
Jahonda men kabi devona yo 'qdir.
Qama muru malaxning^[75] bor makoni,
Menga hattoki bir vayrona yo 'qdir.

210

Go 'zallar ko 'p agarchi bu jahonda,
Mening ko 'nglim hamisha sen tomonda.
Bog 'ingda men kabi bulbullaring ko 'p,
Shu bois yo 'q bu qul hisobu sonda.

211

Muhabbat o 'ti qudratli, buyukdir,
Bu o 't ichra yurak-bag 'rim kuyukdir.
Oyoq qo 'ysa iting diydanga, ey do 'st,
Uning oyog 'i gardi ham suyukdir.

212

*Vatanni yod etarkanman meni zor,
Ko 'zimning yoshi bo 'lgay misli anhor.
Bu badbaxt qo 'rqadirman o 'chmasin deb,
G 'aribliqda hayotim sham 'i zinhor.*

213

*Kishida qancha qo 'pdir molu boylik,
Bo 'lar dunyoga ko 'ngli shuncha bog 'liq.
Agar boshida Xusrav toji bo 'lsa,
Shirin bag 'ri shu toj hajmicha dog 'lik...*

214

*Yo 'lim tushdi sahar mozor tomonga,
To 'lib ketmish mozor ohu fiyunga.
Qilar tuproqqa arz bir bosh suyagi:
«Bu dunyo arzimas parcha somonga!»*

215

*Muhabbat dastidan holim zabundir,
Mudom tosh — yostig 'im, to 'shak — zamindir.
Shu yolg 'iz taskinim: seni sevarman,
Seni sevganning ahvoli qiyindir.*

216

*Yuzingning nuridan olam charog 'on,
Qara, har zarrada mehring namoyon.
Falakning shu 'lasi shunday hamisha:
Umid ko 'zlari har yerda nigoron.*

217

*Na xush, gar ikki dil bir dard-la og 'rir,
Gar og 'rir bitta dil — ushbu dard og 'ir.
Agar Majnunning ko 'ngli dog 'li bo 'lsa,*

Laylining ko'ngli undan dog'liroqdir.

218

*Go'zal yor qayg'usi ichu toshimda,
Yoqimli so'zi toj bo'lsin bopshmda.
Agar baxsh etsa Sheroz mulkini shoh,
Netarman bo'lmasa dilbar qoshimda?!*

219

*Kel, ey, ushbu jahondan qo'l yuvaylik,
Kel, ey, tuproq uyidan dil uzaylik;
Kel, ey, to ekib ezgulik urug'in,
Kel, ey, sabr itgifoqini tuzaylik.*

220

*Tanibmanki esimni, dod eturman!
G'amida nolayu faryod eturman!
Sira shod bo'lganimni eslamayman,
Hamisha xotiri noshod erurman.*

221

*Peshonam sho'ridan andisha qildim,
G'aming zahrini dilga to'sha^[76] qildim.
Falak kajrav^[77] hamisha, toleim ters,
Shu bois ohu zorni pesha qildim.*

222

*O'zingdan o'zga yo'qdir menda bir yor,
Ishim yo'qdir raqiblar birla zshghor.
Do'koningda kasod mening matoyim,
Emasman asli bozorga sazovor.*

223

*Xush ul soat — eshikdan kirsa dilbar,
Bitar hijron, ketar qayg'u muqarrar.*

*To 'lib shavqqa^[78] quvay jonni dilimdan,
Egallasin uning o 'rnini dilbar!*

224

*Bu gulshan, bo 'lmasang sen, misli zindon,
Guliston ham misoli otashiston.
Seningsiz umru oromu tiriklik
Parishon uyquga o 'xshaydi, jonon!*

225

*Tutay parvonadek o 't ichra maskan,
Bu gulxan sen bilan ko 'zimga gulshan.
Gulimsan, gulbunimsan^[79], gulshanimsan,
Sening birla topar jon har o 'lik tan.*

226

*Boshim — yostiq, tanim — to 'shakdan ayro,
G 'amingdan o 'zga yo 'q boshimda savdo.
Qo 'yar yostiqa bosh sendan uzoq kim,
Boshin ko 'tarmasin yostiqa aslo!*

227

*Mening holim xarob, bilmoqchi bo 'lsang,
Yurak-bag 'rim kabob, bilmoqchi bo 'lsang.
Kechib mendan, topibsan yangi yor, bas,
Mahsharda bor hisob, bilmoqchi bo 'lsang.*

228

*Ayo, ey mohliqo yor, qaydadirsan?
Ko 'zlari surmaso^[80] yor, qaydadirsan?
Ular dam bir nafas bag 'rimga kirsang,
Deb erdim, dilrabo yor, qaydadirsan?*

229

Men ul shohman — talangan yo 'g 'u bori,

*Men ul vayron — olingan ganji, ore.
Qarilikdan urarman oh bu dashtda,
Ki yoshlik o‘tdi, qolmadi g‘ubori.*

230

*Chiqarsa har daraxt devoraro bosh,
Uzatar mevasiga qo‘l qari-yosh.
Agar meva emas, bersa-da gavhar,
Uni ildizidan qo‘porgali shosh...*

231

*Boshimda yo‘q g‘amingdan o‘zga savdo,
Visolingdan bo‘lak dilda tamanno.
Bu ishq bozorida, bilgay Xudoyim,
Shulardan o‘zga hech narsam yo‘q aslo.*

232

*Men ul bechorayu miskin, dili kam,
Men ul boshi kesilgan bir kuyuk sham.
Na dunyoni dedim, na oxiratni,
Men ul belolayu besabza ko‘klam.*

233

*Yuzingga yangi oy deb lol qarashar,
Yurishing sarvi qaddishta yarashar.
Dilimda birgina ishqing xayoli,
Seni deb oshig‘ing dunyoda yashar.*

234

*O‘rib dil dashtidan motam gulini,
Terib jon gulshanidan g‘am gulini,
Biroq bu bog‘ aro hech ko‘rmagaysan
Umidsizlikni(ng) boshi xam gulini.*

235

*Dilim dilbar domiga muftalodir,
Firog 'i ham, visoli ham balodir.
Bu vayronada kimni ko 'rma dilxun,
Bular dilmi yo dashti Karbalodir?*

236

*Chekarman tunu kun ko 'yingda nola,
Ko 'zimning yoshlari misli shalola.
Tikan o 'sgay, meni bechora harchand
Visoling bog 'ida eksam-da lola.*

237

*Qani ko 'z yoshim ummon bo 'lmagan tun?
Qani bir jigarim qon bo 'lmagan qun?
So 'zu nola bilan o 'tmoqda umrim,
Holimdan bexabarsan, qaddi mavzun.*

238

*Xudoyo, bu dilim boshga balodir,
Gunohni qo 'z qilib, dil muftalodir.
Agar qo 'zlar ko 'rib lol bo 'lmaganda,
Go 'zallar ishqiq qaydan dilga jodir?*

239

*Xayolingdan bo 'lolmam lahza forig',
Firoqishta giriftor etma ortiq.
Meni qop-qora rangga aylading g 'arq,
Qarodan ham yuqori o 'zga rang yo 'q.*

240

*Bu sahrumi yo qalbi otashinmi?
Uning qonini ichguvchi zaminmi?
Bu yo miskin ko 'ngillar kishvarimi?*

Bu yo sahroi ishq i nozaninmi?

241

*Seni deb g'am yeyishni qildim odat,
Senga, ey bevafo, ma'lum bu holat.
Senga, kel, topshiray kuygan dilimni,
Bilarsan dilni sen, dil seni albat.*

242

*Vujudim chulg'amish darding sarosar,
Dilim doim gulu bog'ingni istar.
Ochay ko'nglimni kezib lolazorda,
Ularda ham sening dog'ing muqarrar.*

243

*Ko'ngil kuygay hamisha motamingdan,
Qutulmoq yo'q sira dardu g'amingdan.
Nega xam, deb, qading mendan so'rama,
Qadimning xamligi pechu xamingdan^[81].*

244

*G'amingdan tan aro jonimda ming tob,
Garov qo'ydim boshimni tig'ga, mahtob.
Kuyib-yonishda gar yo'q ixtiyorim,
Bu savdolarga bermaydi dilim tob.*

245

*Qayerda manziling, ey yori dilxoh?
Bu manzildan qulingni ayla ogoh.
Seniki hamma joy, men — ko'ri botin^[82],
Xato qildim, xato, astag'furulloh.*

246

*Dilimni biryon etsang — ixtiyoring,
Ko'zimni giryon etsang — ixtiyoring.*

*Agar Alvandu Maymand tog'lariga
Boshimni maydon etsang — ixtiyoring.*

247

*Kelaqol, kelki, jononim o'zingsan,
Kelaqol, kelki, sultonim o'zingsan.
O'zingdan o'zgani yorim demasman,
Kelaqol, kelki, iymonim o'zingsan.*

248

*Biror korimga bu ko'ngil yaramas,
Uning hosili g'amdan o'zga emas.
Bo'lar gul mavsumida savdo qizg'in,
Bu dil hech narsaga ammo qaramas.*

249

*Uzoqqa tushdimu yoru diyordan,
Malomat — yorim, ish kelmas barordan.
Bilolmam, qasdi jon qildimmi nohaq?
Ilojim yo'q bo'lak sabru qarordan.*

250

*Bo'lib bag'rim ado kelib keturman,
Visolingdan judo kelib keturman.
Ko'yiga kelmading, deb qilma ta'na,
Axir, xuddi gado kelib keturman.*

251

*Ulug'laylik karimlar himmatini,
Qilaylik rad laimlar^[83] xizmatini.
Karam birlan karimlar qo'li doim
Muruvvatta etar esh davlatini.*

252

Bahorim bexazon sen birla, jonon,

*G'amim yo'q, qolsa gulsiz bog'u bo'ston.
Kel, ey oshiq ko'ngil, dodimga yetgil,
Dilim sen birla har doim nura'fshon.*

253

*Ko'changga, dilrabo, tokay kelurman?
Tilab sendan vafo, tokay kelurman?
Xudodan qo'rqmasang, aytgil, seni deb
Ko'changga men gado tokay kelurman?*

254

*Hamisha g'am yukidan qomatim xam,
Jahonda men kabi hasratzada kam.
Sira g'am dastidan bo'lmadim ozod,
Bu tolesiz dilim misli ko'hi g'am.*

255

*Tunim qora, kunim undan batardir,
Ham iqbolim guli zeru zabardir.
Yuragimga qadaldi kiprik o'qi,
Ki zaxmi naf'li, nainki zarardir.*

256

*Dilim zoru hazin — chekmaymi nola?
Vujudim otashin — chekmaymi nola?
Nechun nola qilursan muncha, derlar,
Ajal bo'lsa yaqin — chekmaymi nola?*

257

*Xudoyo, so'yla, kim birlan bo'lay men?
Zaifman, bo'yla, kim birlan bo'lay men?
Eshigingda, qabul qilgaymi, rad deb,
Turibman o'yla: kim birlan bo'lay men?*

258

*Olib boda, qilay sayri guliston:
Hammayoq — maysazor, suvlar — farovon.
Ichay bir-ikki jom may shodligimdan,
Bo 'lay mast-u, boray yoningga, jonon.*

259

*Karimdir u — makoni lomakondir^[84],
Go 'zallar yuziga u baxsh etar nur.
Kecha-kunduz el ahvalidan ogoh,
Hamaning rizqini qilguvchi ma 'mur.*

260

*Haqiqat shuki, bir ovoradirsan,
Bir yerda aylanar bechoradirsan.
Mening yuzimga yopding barcha yo 'lni,
Ayon bo 'ldiki, ko 'ngli qoradirsan.*

261

*Senga loyiq emasdirman, bu — ravshan,
Biroq bordirman ushshoq safida man.
Yurak ming karra qonga botsa ham kam —
Senga, zotanki, bahri bekaronsan^[85].*

262

*Jigar qoni-la dil to 'lgan hamisha,
Ko 'zim yoshli-yu, mahzun tan hamisha.
Kelarmi, deb biror kun men tomonga,
Tutibman yo 'lida maskan hamisha.*

263

*Agar tunda eshikdan kirsam qumrim,
Go 'yo ortiga qaytar o 'tgan umrim.
Ko 'zim toshta qadar bo 'lgay yo 'lida*

Eshikdan chiqishini poylab har zum...

264

*Ohimdan qoplar o't yetti falakni,
Ovoz dil qonidan bergay darakni.
Dili g'am o'tida hech kuymaganlar
Bilarmi holini kuygan yurakni?*

264

*Ohimdan qoplar o't yetti falakni,
Ovoz dil qonidan bergay darakni.
Dili g'am o'tida hech kuymaganlar
Bilarmi holini kuygan yurakni?*

265

*Bu g'amdan bahravar dil xurramu shod,
Bu g'amdan bexabar dil dastidan dod!
Bu ishq bozorining ganjinasidan
Bu g'amdan kuygan har dil bo'lgay obod!*

266

*Kunim tundan, tunim kundan batardir,
Xatini^[86] sevdi kim zeru zabardir.
Firoqingda kuyarman kecha-kunduz,
Faqirlarning fiyuni beasardir.*

267

*Azizlar, biz giriftori o'shal dard,
Birimiz notavon-u, o'zgamiz — fard.
Visolingni nasib etmadi qismat,
Yuzingni ko'rmay endi bo'lgamiz gard.*

268

*Mening baxtim shukim: tog'lar vatandir,
Kezib chiqdim jahon — har yoq chamandir.*

*Na uy-joyim bor-u, na molu davlat,
O'lar bo'lsam paru bolim kafandir.*

269

*Misoli nay tanimda band uza band,
Firoq o'ti mudom jonimga payvand.
Xudo bilgay: qachon bo'lgay qiyomat,
Qiyomatga qadar tinmas bu dardmand.*

270

*Erursan gar ko'yida zor, yema g'am!
Seni gar aylasa ham xor, yema g'am!
Yarimta dil bilan qo'rqmam birovdan,
Ikki olamcha ko'ngling bor, yema g'am!*

271

*Ko'zim yosh to'kkali moyil seningsiz,
Hayotim naxli^[87] behosil seningsiz.
Biror xilvatda tun-kun manzil aylab,
O'linga bo'lgamen vosil seningsiz.*

272

*Seningsiz bitmasin bo'stonda bir gul,
Agar bitsa, sevib-sevilmasin ul.
Seningsiz kulguga kim ochsa labni,
Yuziga tegmasin dil qoni butkul.*

273

*Bu dasht ichra bir inson zoru nolon,
Ekardi lola ko'zidan to'kib qon.
«Biror naf' bormi bu dehqonchilikdan?
Hay, atgang!» — deb boshin chayqardi har on.*

274

Men ul mast — menga bosh, oyoq barobar,

Menga bosh ham, oyoq hamdir shu dilbar.

Dilorom deb beruvchi dilga orom,

Bilurman seni, ey soqiyi kavsar!^[88]

275

Men ul ozurdai bexonumonman,

Men ul mehnatzada, g'amzada jonman.

Men ul sargashtaman — sahroda sarson,

Ne yel essa, unga men ilk nishonman.

276

Chin oshiq aylamas farq jismu jonni,

Jonondan jonni-yu, jondan jononni.

Bo'lib yor dardi birlan oyu yillar,

O'zining dardiga bilmas darmonni.

277

Na xush, kim farqlamas boshdan oyoqni,

O't ichra gul bilan quruq butoqni.

U cherkov, Ka'ba yo oshiq vujudi,

Seningsiz eslatar o'tsiz o'choqni.

278

Bu banda besaru somon yaraldim,

Parishonmanki, parishon yaraldim.

Parishonxotirlar tuproqqa ketdi,

Ular tuprog'idan bu jon yaraldim.

279

Mudom yosh ko'zda, qayg'u — dil libosi,

Jigarning qonidan ayshim asosi.

Birovning ishqida o'rtanmaganga

Emas ma'lum oshiq dil muddaosi.

280

*Dilim bir andalibi xushnavodir,
Saharlarda qilib nola adodir.
Qo'nib gul shoxiga bulbul azonda
Fig'on aylab degay: gul bevafodir!*

281

*Qaniydi ko'zlarim dardingni olsa,
Agar ko'zlaringga dard soya solsa.
Topibsan o'zga yor — koshki bu gapga
Qulog'im kar, ko'zim ko'r bo'la qolsa!*

282

*Agar hijron aro qolsam, dilafro'z,
Menga farqsiz bo'lur kechayu kunduz.
Agar vasling menga bo'lsa muyassar,
Bo'lar har bir kunim go'yoki Navro'z!*

283

*Tokay ko'ying aro men zoru nolon?
Tokay holimni qilgaysan parishon?
Olish o'rniga g'am yukini mendan,
Tokay yuk uzra yuk qo'ygaysan, ey jon?*

284

*Qaridim, endi yoshlik qayda — yovqur,
Vujudim aylamish tark quvvatu qo'r.
Degaylar menga: chiq, gul-lolalar ter,
Terolmayman — ko'zimda qolmagan nur.*

285

*Bu dilu diydadan ming ohu faryod!
Nimani diyda ko'rsa, dil qilar yod.
Yasab bir uchlari o'tkir pichoqni,*

Uray diydamga to dil bo'lsin ozod.

286

Yurarman yig'labon har ko'cha-yo'lda,

Bo'lar paydo ariklar o'ngu so'lda.

Qilib bechora vasling bog'in orzu

Gul eksam-da, tikan o'sgay bu cho'lda.

287

Bu ishq dardi biyobonparvar etdi,

Visol orzusi bebolu par etdi.

Menga dersanki, sabru toqat ayla,

Holimni sabru toqat battar etdi.

288

Boshim — to'pu bu dunyo misli zindon,

Ko'ngilni etmagay tark ahdu paymon.

Agar davronki, nomardlarga qolsa,

Kutarman kelgunicha o'zga davron.

289

Qayu zotlarki, senga hamnishindir,

Hamisha ko'ngli shod, bag'ri butundir.

Azal ishqbozligu ishq odati shu:

Visol baxti dilovarlar^[89] uchundir!

290

Xayolimda na savdo bor-u, na sud^[90],

Na sog'liq, na tiriklikdan taraddud.

Netay daryo labi, chashma bo'yini,

Ko'zimning har biri ming bitta Zandrud^[91].

291

Buzar tun tinchini qashqir ovozi,

Qoshimga kel qaro zulfingni yozib.

*Labingning uchidan bir bo'sa bergil,
Degil: qildim Xudo qulini rozi.*

292

*O'zim chekdim bu gulning bor azobin,
Qo'yib o'rniga barcha obu tobin^[92].
Xudo dargohida mumkinmikan hech:
Birov olsa gulimning gar gulobin?!*

293

*Xarob etding-ku, ey charx, turmushimni,
Quchog'imdan uchirding baxt qushimni.
Meni nard taxtasiga o'tqazib sen,
Beshu olti bilan qilding ishimni.*

294

*Labi — shakkar, badan — nuqraga o'xshar,
Ko'zim — daryo, vujud — otash muqarrar.
Kirishga qo'rqar u bag'rimga shundan:
Erir otashda — nuqra, suvda — shakkar.*

295

*Falakda bor na bir do'st-u, na bir juft,
Mudom qon to'ksa-da, demas sira uf.
Uning shevasiyu ishi faqat shu:
Qayerda bir chiroq ko'rsa, qilar puf.*

296

*Meni chulg'ar xayoling har tun, ey yor,
Xayoli xatgu xoling har tun, ey yor.
Qilay ko'z uyiga kiprikni devor,
Ko'ray deb to jamoling har tun, ey yor.*

297

Kel, ey, ko'nglimda vasling sham'ini yoq,

*Arit hijronu dardu g'amni mutloq.
O'shal qayrilma qoshingga qasamkim,
Bo'libman g'amga juft, sendan esam toq!*

298

*G'ami ishqing na har mushtoqqa tushgay,
Humo aksi na har tuproqqa tushgay.
Sarafrozlar topar ishqing aro kom —
Quyosh shu'lasi avval toqqa tushgay.*

299

*Go'zallar jabridan bag'rim jarohat,
Bu lola hasrati ko'nghimda qat-qat.
O'qishsa nomaxonlar noma ul kun,
Egib boshimni, chekkayman xijolat.*

300

*Bahor keldi bog'u sahroyu toqqa,
Bahordek yoshligim ketdi qayoqqa?
Yigitlar qabridan gul-lola ungay,
Go'zallar sayr etib kelsa bu yoqqa.*

301

*Dilim qaysi sanam devonasidir?
Bu sargardonni qayda xonasidir?
Bilolmayman, dili ovvora kimning
Asiri nargisi^[93] mastonasidir?*

302

*Bilar nolaning ohangini bedil^[94],
Aniqlar eritib el tillani, bil.
Kuyuk dillar, keling, nola qilaylik,
Kuyuk dil qadrini bilgay kuyuk dil.*

303

*Bu dunyo ishlariga aklim hayron,
Sabab izlayverib, dil bo'ldi vayron:
Qilib rizqini kimlarning farovon,
Berar minnat bilan kimga suvu non.*

304

*Qiziqmaysan — nechuk bu yori zoring:
«O'tar kimlar bilan bog'u bahoring?»
Meni yod aylamaysan sen-u, men ham
Xabarsiz: kim bilandir koru boring?*

305

*Kelib qo'r, yor, dilim g'amga to'liqdir,
To'kar ko'z qonli yosh, rangim sariqdir.
Bu hijron dardi, sobirlik azobi
Kuyuk jonimga mangulik rafiqdir.*

306

*Men ul rindmanki, isyon pesha qildim,
Mudom qo'linga jomu boda oldim.
Agar sen begunohsan, bor, malak bo'l!
Men ul Odamu Havvoda yaraldim.*

307

*Bilolmaymanki, rozim kimga aytay?
G'amu so'zu gudozim kimga aytay?
Kim eshitsa sirim elga qilur fosh,
Nihon rozu niyozim kimga aytay?*

308

*Agar bo'lsa necha ming mulki dunyo,
Agar bo'lsa necha ming mulki uqbo.
Kel, ey dilbar, ochay ko'nglim o'zingga:*

Bu dunyoda seningsiz bormi ma'no?

309

*Menga olam g'amini aylading yuk,
Ko'rindimmi senga men mast tuyadek?
Burundug o'tkazib, nokasga berding,
U o'ylar: yukni ko'p ortsam, yurar tek.*

310

*Bu yolg'izlik g'amidan kuydi jonim,
Ko'rib nochorligim oshdi fig'onim.
Uzun tunlarda bekaslik g'amidan
Qilar nola har bandi ustixonim.*

311

*Agar dilbar yuziga rag'batim bor,
Yo'lim to'sma, bo'libman vasliga zor.
Xudo haqqi, shoshilma muncha, sorbon,
Bu karvondan qrlibman men — dilafgor.*

312

*Xudoyo, dod bu dildan, dod bu dildan!
Biror dam bo'lmadim men shod bu dildan.
Menga arzingni ayt deyishsa tongla,
Qilarman tinmayin faryod bu dildan!*

313

*Kishining dardi yo'qmi — o'lgani beh!
Muhabbatsiz qo'ngilning so'lgani beh!
Sahar gulga boqib, bulbul urar bong:
Beishq ko'ziga tuproq to'lgani beh!*

314

*Tug'ilgandan buyon men qo'ru g'ofil,
Mudom bo'ldim gunoh ishlarga moyil.*

*Shu choryoru imomlar haqqi, yo Rab,
Tuya ko 'rdingmi — yo 'q: bahrimdan o 'tgil!*

315

*Yuzing mehri qo 'ngildan chiqmas hech on,
Etib bo 'lmas bu ishq dardini doston.
Va lekin bu muhabbat otashini
Xaloyiqdan tutib bo 'lmaydi pinhon.*

316

*Necha ming-ming qo 'ngil vayron g 'amingda,
Necha ming-ming jigarlar qon g 'amingda.
Necha ming-ming bu dog 'larni sanab boq,
Ularga yo 'q hisobi son g 'amingda.*

317

*Sochini loladan etmish sarafroz,
Ko 'zining qa 'rida pinhon erur noz.
Boshimga soldi bor savdolarini,
Necha yil noz etar ul nozanin boz?*

318

*Fig 'onu nola kor qilmas falakka,
Xar aylanganda o 't solgay yurakka.
O 'tib ketmoqda ohu g 'am bilan umr,
Falak bo 'ysunmagay bizning tilakka.*

319

*Falakning dastidan men dod etarman!
Tunu kun nolayu faryod etarman!
Xasu xor birla o 'ltirsa nigorim,
Ko 'ngilni qandayin men shod etarman?!*

320

So 'rabdirsanki, nechun beqarorman?

Magar parvardai3 bodi bahorman?
Makonim nega tog‘u dashtu sahro?
Netay, yor, bunda men beixtiyorman.

321

Sen, ey, bir nozaninu dilrabosan,
Sen, ey, qayrilma qosh, ko‘zi qarosan,
Sen, ey, qo‘sh kokili juft ajdahosan,
Menga dersanki, nechun muhtalosan?

322

Asal-ku bo‘lmading, nechun zaharsan?
Emassan yor-u, yonimda yurarsan.
Bu dil zaxmiga malham qo‘ymading, bas,
Nega zaxmimga tuz sepib turarsan?

323

Chekay bir ohki, o‘t tushsin jahona,
Bo‘lib devona dil battar devona.
Kuyuk dillarning ohidan haznr bo‘l,
Kuyuk dillarning ohi ko‘p yomon-a!

324

Bu sunbul mushki Chindan-da qarodir,
Bu kokuldan necha ming dil yarodir.
Dilingga yo‘l topolmas nola-ohim,
Bu dilmi yoki tosh, ayt, ne balodir?!

325

Mudom ko‘nglim yonar, ko‘zim to‘kar yosh,
Jigar qonini aysh jomi etar fosh.
Toparman qayta jon o‘lsam bo‘yingdan,
Mazorimdan o‘tar bo‘lsang, qalamqosh!

326

*Mudom qolu balo tashvishi dilda,
Bayon aylanay gunohim qaysi tilda?
Agar «lo taqnatu»^[95] tutmas qo'limni,
Ishim «vo vaylato»^[96] bo'lgay bu elda.*

327

*G'aming daryosiga dil botdi-ketdi,
Firoqing dog'i bag'rim resh-resh^[97] etdi.
Ko'zimda qonli yoshlar qatra-qatra,
Ki go'yo lolalar mavsumi yetdi.*

1. ↑ Injular ummoni. - Toshkent, 1988. 120-149-betlar; Rudakiy va Bobo Tohir she'riyatidan. - Toshkent, 1994. 89-139-betlar; Juzjoni A. Sh. Tasavvuf va inson. - Toshkent, 2001. 157-162-betlar.
2. ↑ Hamnishin — birga o'ltiruvchi, do'st, hamsuhbat, ulfat.
3. ↑ Nangu nomus — obro', sharaf.
4. ↑ Bahru bar — suv va quruqlik.
5. ↑ Faqirlik — solikning faqr maqomidagi holati. Faqir shunday kishiki, u faqat Haq ma'rifatiga yetishga muhtoj bo'ladi.
6. ↑ Dang — bexud, hayron.
7. ↑ Qalandar — 1) ilohiy ishq yo'lida vujud holatiga yetgan darvesh; 2) vujud va qalbini poklab, o'zini fano holatiga yetkazishga intilgan solik; 3) qalandariya tariqati a'zosi.
8. ↑ Bistar — to'shak, yotar joy, ko'rpa-to'shak, o'rin.
9. ↑ Tang — tor, siqiq.
10. ↑ Ozurda hol — ozor chekkan, ranjigan, xafa bo'lgan.
11. ↑ Siymindudoq — kumush lab; majozan: go'zal lab.
12. ↑ Afgor — majruh, ezilgan. o'rtangan; nochor; g'amli.
13. ↑ Bu yerda faryod, fig'on ma'nosidagi sho'r va fitna, fasod ma'nosidagi shar(r) so'zlari vositasida so'z o'yini qilingan. Qolaversa, sho'r so'zining tug'yon, g'alayon, fitna, fasod ma'nolari ham bor.
14. ↑ Qilu qol (Qolu qil) — so'zlash, gap-so'z, mubohasa.
15. ↑ Charxi gardon — aylanuvchi falak; osmon; jahon.
16. ↑ Alvand — Erondagi Hamadon shahri yaqinidagi tog'.
17. ↑ Za'faron — sarg'ish tus beruvchi xushbo'y o'simlik; sariq rang.
18. ↑ Qaqnus — afsonaviy xushovoz qush: bir umr xas-xashak yig'ib, keyin uning uyetiga chiqib, shunaqangi o'tli navo chekarkanki, nafasidan to'plagan xirmoni

- alanga olib, o‘zi ham yonib ketarkan — uning kulidan yangi qaqnusbachcha paydo bo‘lar ekan.
19. ↑ Fil hol — darhol, shu onda.
20. ↑ Paru bol — qanot.
21. ↑ Mushkbor — mushk yog‘diruvchi.
22. ↑ Tasavvuf ahli tongda urilgan oh ilohiy mahbubaga yetib boradi, deb hisoblaydilar. Bundan tashqari, so‘fiyona adabiyotda ko‘pincha bir oh urib, jon berish haqida so‘z boradiki, bu oh oshiqni ma‘shuqqa yetkazadi.
23. ↑ Zarf — idish.
24. ↑ Zunnor — nasroniylar beliga bog‘laydigan chilvir. Islom mamlakatlarida g‘ayri musulmonlar ham zunnor bog‘lab yurishga majbur edilar. Tasavvufda zunnor — xaqiqiy mahbuba xizmati va toatiga bel bog‘lash.
25. ↑ Budunabud — boru yo‘q.
26. ↑ Arab Sultoni — Muhammad alayhissalom.
27. ↑ Giribon — yoqa.
28. ↑ Doman — etak.
29. ↑ Resha — ildiz, tomir.
30. ↑ Dun — tuban, pastkash, razil, xor.
31. ↑ Sufra — dasturxon.
32. ↑ Kishvar — mamlakat, o‘lka, viloyat, iqlim.
33. ↑ Kimiyo (kimyo) — bu yerda: nodir, noyob.
34. ↑ Balo — ofat, musibat. So‘fiylar aqidasiga ko‘ra Xudo sevgan bandasiga balo yuboradi, o‘z navbatida, balo insoshga Xudoga yaqinlashtiradi.
35. ↑ Sarxona — chilimning tamaki solib tutatiladigan qismi.
36. ↑ Zeru zabar — ostin-ustun; notinch.
37. ↑ Sarbasar — boshdan-oyoq, butunlay.
38. ↑ Kadar — mung, mahzunlik, xafalik, g‘ashlik.
39. ↑ Koru bor — ishlar, mashg‘ulliklar.
40. ↑ Somon — imkoniyat, iloj, yordam, ko‘mak.
41. ↑ Musalsal - halqa-xalqa, bir-biriga ulangan.
42. ↑ Purxob — seruyqu; majozan: nozli, karashmali.
43. ↑ Sarosar — boshdan-oyoq, u boshidan bu boshigacha, hammasi.
44. ↑ Mustamand — xasta, notavon, muhtoj, hojatmand.
45. ↑ Mutrib — cholg‘uvchi va qo‘shiqchi, mug‘anniy. Tasavvufda oriflar dilini ramzlar kashfi-yu, haqiqatlar bayoniga to‘ldiradigan, fayz yetkazuvchi va targ‘ib qiluvchilarni mutrib deytilar. Rabboniy olamdan ogoh qiluvchilar va komil pirlarga ham ishora qilinadi. Uning quyi — ma‘rifat, qo‘shig‘i esa — haqiqat.
46. ↑ Gireh — tugun, chigil, mushqullik, qiyinchilik; soch o‘rimi.
47. ↑ Kelib holimni bir ko‘rgil, sumanbar,
48. ↑ Sumanbar — oqbadan, go‘zal mahbuba.
49. ↑ Tiyra — qora, qorong‘i, xira, nursiz; qayg‘uli, g‘am-g‘ussali.
50. ↑ Mehnat — musibat, balo; g‘am, dard; mashaqqat, qiyinchilik.
51. ↑ Naxli navbar — yangi mevaga kirgan daraxt.
52. ↑ Suriy — Afg‘onistondagi qadimiy eroniy nasab qavm.
53. ↑ Som — Eron va Turon mamlakatlariga hukmronlik qilgan Nuh payg‘ambarning o‘g‘li; «Shohnoma» qahramoni Rustamning bobosi.
54. ↑ Narimon — peshdodiy hukmdor Manuchehrning lashkarboshisi. «Shohnoma» qahramonlaridan biri.

55. ↑ Muft — tekin, bepul.
56. ↑ Jovidon — abadiy, doimiy, mangu.
57. ↑ Bexonumon — uy-joysiz, sarson-sargardon, bechora.
58. ↑ Besarum somon — baxtsiz.
59. ↑ Faridun (Afridun) — peshdodiylar sulolasiga mansub oltinchi podshoh. U adolat ramzi hisoblanadi.
60. ↑ G‘ul-g‘ul — g‘ulg‘ula, shovqin-suron, dovruq.
61. ↑ Zam — qo‘shish, jamlash.
62. ↑ Palang — yo‘lbars; qoplon.
63. ↑ Sham’ — solik dilini kuydiradigan ilohiy nur. Shuhud sohibining dilini yondirib, uni munavvar qkladigan irfon nuriga ham ishora.
64. ↑ Lola — mushohada kilinadigan ma’rifatning natijasi. Bechora oshiqning bag‘rini tiladigan mahbubaning kizil yuziga ham ishora qilinadi.
65. ↑ Pesha — ish, amal; hunar, odat.
66. ↑ Zanaxdon — iyak, kulgich.
67. ↑ Horut — farishta. U Morut ismli farishta bilan birga ayolga oshiq bo‘lganligi uchun Xudo g‘azabiga uchrab, Bobuddagi chohga tashlangan. Kimki sehru jodudan saboq olmoqchi bo‘lib, choh qoshiga borsa, Horut unga sehrgarlik ilmini o‘rgatadi.
68. ↑ Xumoroluda — xumorli, mast.
69. ↑ Ko‘z — tasavvufda komil inson timsoli.
70. ↑ Bodom — bu yerda: mahbubaning bodom shaklidagi ko‘ziga ishora.
71. ↑ Soch — tasavvuf she’riyatida moddiy dunyo timsoli bo‘lib keladi. Uning uzunligi — dunyoviy hoyu havaslarning chek-chegarasizligi, Qalinligi — tirikchilik tashvishlarining son-sanoqsizligiga, halqaligi — nafs bandalari ko‘lgini ovlash uchun tuzoqqa o‘xshatiladi va h.k.
72. ↑ Yuz — ilohiyot jamoli timsoli va komil inson chehrasi.
73. ↑ Qosh — ilohiy va moddiy olam chegarasi. Payvastaligi — Olloh va olamning yagonaligi, qayrilmaligi — so‘fiy dilidagi nafs va kibrni, uzun va qalinligi — haq yo‘lining uzun va murakkabligini bildiradi.
74. ↑ Xumor — sargardon oshiq.
75. ↑ Mo‘ru malax — qurtu qumursqa, hasharotlar, chumoli va chigirtka.
76. ↑ To‘sha — oziq-ovqat, yo‘l ozig‘i.
77. ↑ Kajrav — egri yuruvchi, teskari aylanuvchi; makkor, hiylagar.
78. ↑ Shavq — Haq va solik o‘rtasidagi yaqinlikning kuchayishi, ishtiyoq va istak g‘alabotidan qalbning sururga to‘lishi.
79. ↑ Gulbun — gul, gul tupi.
80. ↑ Surmaso — surma tortilgan, surmali.
81. ↑ Pechu xam — egilgan, buralgan; majozan: ranju azob.
82. ↑ Ko‘ri botin — qalbi so‘qir.
83. ↑ Laim — xasis, past, nokas.
84. ↑ Bekaron — behad, bepoyon, beintiho, besohil, juda keng.
85. ↑ Bekaron — behad, bepoyon, beintiho, besohil, juda keng.
86. ↑ Xat(t) — yangi chiqkan tuklar; soch, zulf.
87. ↑ Naxl — ko‘chat, nihol, yosh daraxt.
88. ↑ Soqiyi kavsar — Hazrat Ali. Unga jannatdagi Kavsar Hovuzining sokiyligi marhamat qilingan. Qiyomatda u odamlarga obi kavsar ulashadi.
89. ↑ Dilovar — botir, qahramon, qo‘rqmas.

90. ↑ Sud — foyda, bahra, naf.
91. ↑ Zandrud — Isfahondagi daryo.
92. ↑ Obu tob — toblanish, yashnash; tozalik.
93. ↑ Nargis — bo‘tako‘z; majozan: shahlo ko‘z.
94. ↑ Bedil — oshiq, maftun; dardli, alamli; holsiz, majolsiz.
95. ↑ Lo taqnatu— Qur’on oyatidan: «noumid bo‘lmanglar».
96. ↑ Vo vaylato — afsus-nadomat.